

XUNLAR TARIXI VA MEROSI

Sharapov Elnur Zohidovich*Andijon Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Xunlar davlati - miloddan avvalgi 3-asrda tashkil topgan va ko'chmanchi turkiy xalqlar orasida katta qudratga ega bo'lgan davlatdir. Xunlar Mo'dun shanyu boshchiligida birlashib, Sharqiy Osiyodan G'arbiy Yevropagacha bo'lgan hududlarga ta'sir o'tkazgan. Ular Xitoy bilan murakkab munosabatlarda bo'lib, ba'zan savdo diplomatik aloqalar o'rnatgan, ba'zan esa harbiy to'qnashuvlar sodir bo'lgan. Xunlar kuchli harbiy salohiyati, chavandozlik san'ati va hujumkor harakatlari bilan mashhur bo'lgan.*

Kalit so'zlar: *Xunlar davlati, Modun Shanyu, ko'chmanchi davlati, Markaziy Osiyo, Buyuk Xitoy devori, Xitoy-Xunlar urushlari, harbiy chavandozlar, xunlar istilosi, Shimoliy xunlar, Janubiy xunlar, xunlar merosi, Attila, Xunlar va Yevropa, ko'chmanchi madaniyat.*

Xunlar davlati qadimgi dunyoning eng qudratli ko'chmanchi davlatlaridan biri bo'lib, eramizdan avvalgi III asrdan eramizning V asrigacha mavjud bo'lgan. Bu davlat Osiyo va Yevropa hududlarida o'z ta'sirini o'rnatgan, Xitoy, Rim va boshqa davlatlar bilab aloqa va ziddiyatda bo'lgan. Ular asosan Markaziy Osiyoda yashab, mo'g'ul va turkiy qabilalardan tarkib topgan edi. Xunlar davlatining asosiy hududi bugungi Mo'g'uliston, Xitoyning shimoliy qismi va Janubiy Sibir hududlarini o'z ichiga olgan. Xunlar o'z davrida kuchli harbiy kuchga ega bo'lgan va ko'plab hududlarda siyosiy ta'sir ko'rsatgan.

Xunlar davlatining kelib chiqishi. Xunlar haqida dastlabki ma'lumotlar Xitoyning qadimgi manbalarida uchraydi. Ular turli ko'chmanchi qabilalar birlashuvidan tashkil topgan davlat bo'lib Mongoliya hududida shakllangan, ularning asosiy boshqaruvchisi "Shanyu" deb atalgan. Xunlar davlatining ijtimoiy-siyosiy tuzilishida Xunlar davlati ko'chmanchi turmush tarziga ega bo'lgan xalq bo'lib, davlat boshqaruvi qabilaviy tuzumga asoslangan edi. Shanyu davlatning boshlig'i bo'lib, ko'p hollarda ularning qudrati harbiy yurishlar bilan o'lchanardi. Xunlar urushda chavandozlik va kamondan otish bo'yicha ustalar sifatida tanilgan. Modun Xitoyning Xon sulolasi bilan bo'lgan urushlarda muvaffaqiyatli g'alabalar qozongan.

Eramizdan avvalgi III asrda Xunlar Xitoy hududiga kirib, qo'shinlari bilan janubiy mintaqalarga bostirib kirgan. Xitoy imperiyasi va Xunlar o'rtasidagi nizolar davomi sifatida Buyuk Xitoy devori qurilgan bo'lsa-da, xunlar uzoq vaqt davomida Xitoyga katta bosim o'tkazgan. Xunlar davlatining eng yuksak davri Modun Shanyu hukmronligi bilan bog'liq. Eramizdan avvalgi 209-yilda taxtga o'tirgan Modun Xunlar davlatini yanada kuchaytirib, hududlarini kengaytirishga kirishdi. Uning davrida Xunlar Xitoyni o'ziga tobe qildilar va Markaziy Osiyodagi ko'plab qabilalarni bo'ysundirdilar. Modun Shanyu tomonidan joriy etilgan harbiy harakatlar bo'yicha benazir san'atkorlar hisoblangan. Ular tezkor va aniq zarbalar bilan dushman qo'shinlarini mag'lub eta olishgan. Xunlarning Xitoy bilan munosabatlari Xunlar va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ziddiyatlarga boy bo'lgan. Xunlar ko'pincha Xitoyning chegaralariga hujum qilgan va bu Xitoyni qo'riqlash

uchun Buyuk Xitoy devorini qurishga undagan. Biroq Xitoy va Xunlar o'rtasida savdo va diplomatik aloqalar ham mavjud bo'lgan. Modun shanyu davrida xunlar Xitoydan katta miqdorda to'lov va sovg'alar olishga muvaffaq bo'lgan.

Xunlarning madaniyati va merosi. Xunlar davlatining madaniyati va hayoti ko'chmanchi hayot tarzi bilan chambarchash bog'liq bo'lgan. Ular otliq charvadorlar bo'lib, ko'chmanchilik hayoti orqali katta hududlarni nazorat qilganlar. xunlarning san'ati asosan hayvonlar tasviriga asoslangan bo'lib, ko'chmanchi turmush tarzining elementlari bilan uyg'unlashgan. ularning jasur va intizomli qo'shinlari o'z davrida ko'p xalqlarni haytarda qoldirgan. Xunlarning madaniyati quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ko'chmanchi hayot tarzi - Xunlar yil davomida yaylovlar bo'ylab ko'chib yurishgan. Ularning asosiy tirikchilik manbai chorvachilik, ayniqsa ot boqish bo'lgan. Otlari xunlarning hayoti va harbiy strategiyasida muhim o'rin tutgan.

2. Harbiy madaniyat - Xunlar o'z harbiy salohiyati bilan mashhur bo'lgan. Ularning asosiy harbiy kuchli otliq qo'shinlaridan iborat bo'lgan. Chavondozlik va yoy otish san'ati xunlar hayotining ajralmas qismi edi. Harbiy intizom va tezakor harakat qilish qobiliyati ular uchun muhim strategik ustunlik bo'lgan.

3. San'at va bezaklar - Xunlar san'atida ko'chmanchi turmush tarzi aks etgan. Ayniqsa, hayvonlar tasvirlari keng tarqalgan bo'lib, bu hayvonot dunyosiga bo'lgan hurmatlarini ifodalagan. Oltin va boshqa qimmatbaho metallar bilan ishlangan bezaklar, taqinchoqlar va qurol-aslahalar xunlar madaniyatida keng qo'llanilgan.

4. Diniy e'tiqodlar - Xunlar diniy qarashlari ko'p jihatdan tabiiy kuchlarga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan. Ular osmon, yer, suv kabi tabiat unsurlariga sig'inishgan va shamanizmga oid amaliyotlar bilan shug'ullanishgan. Shamanlar jamiyatida muhim ruhoniy rol o'ynagan.

5. Mehmondo'stlik - Xunlar mehmondo'stlik bilan ham mashhur bo'lgan. ular safardagi odamlarga yordam berish, mehmonlarni hurmat qilish kabi urf-odatlariga rioya qilishgan.

Xunlar davlati keyinchalik ichki nizolar va tashqi bosimlar tufayli zaiflashadi. Ular Shimoliy va Janubiy Xunlarga bo'linib ketdi, natijada davlat asta-sekin inqirozga yuz tutdi. Eramizning V asriga kelib Xunlar Yevropa va Osiyoda katta iz qoldirib, tarix sahnasidan yo'qoldi.

Xulosa.

Xunlar davlati ko'chmanchi qabilalar tomonidan tashkil etilgan va o'z davrida Osiyo va Yevropa hududlarida katta ta'sir o'tkazgan qudratli davlat bo'lib, u tarixda muhim iz qoldirgan. Ular harbiy mahorati, siyosiy ta'siri va keng hududlarni zabt etishi bilan ajralib turadi. Ularning harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi tizimi ko'p xalqlar va imperiyalarga ta'sir ko'rsatgan. Modun Shanyu davrida Xunlar o'zining eng yuqori cho'qqisiga yetgan, Xitoy bilan doimiy urushlardan faol ishtirok etgan va katta siyosiy ta'sirga ega bo'lgan. Xun qabilalari nafaqat Xitoy balki, bu davrda mavjud bo'lgan O'rta Osiyo davlatlari bilan ham aloqalarni yo'lga qo'ygan. Xunlarning siljishlari boshqa qabilalar bilan aralashib ketishiga ham sabab bo'lgan, Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra hattoki skif qabilalari xunlarning avlodlari hisoblangan. Xunlar davlatining parchalanishi va inqirozi ularning tarixi oxiri bo'lsa-da, ularning ta'siri keyingi ko'chmanchi xalqlar, xususan turkiy va mo'g'ul davlatlarining

shakillanishida sezildi. Xunlar davlati inqirozga uchrasa ham, ularning merosi va ta'siri asrlar davomida eslanib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B. "Tarixdan saboqlar". T: O`qituvchi. 1994.
2. Sultonov F. "Qadimgi dunyo tarixi". T: O`zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2012.
3. Otaxo`jaev A. "Ilk o`rta asrlarda Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida Turk-So`g`d munosabatlari". T: Art-Flex. 2010.
4. Xo`jaev A. "O`zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti". 2007.
5. Azim Malik, "Xunnu davlati"// Muloqot № 1-2 1994. 55-58-betlar.